

Landshaftlar haqida tushuncha va inson faoliyati ta'sirida o'zgarishlari

Shokirova Shahrizoda Zafar qizi

Qarshi davlat universiteti geografiya

fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada landshaft tushunchasi keng yoritib beralgan va landshaftlar geografik nuqtai nazardan qanday turlarga bo'linishi ahamiyati inson ta'siri doirasida landshaftlarda yuz beradigan o'zgarishlar shuningdek landshaft hosil bo'lishi uchun qanday geografik qonuniyatlarga bog'liq ekanli haqida har bir landshaft morfologik qismlardan tashkil topgan bo'lib ular urochisha, fatsiya va joy kabi morfologik birliklarga alohida tarif berilgan landshaftlar tushunchasini fanga birinchi bo'lib geograf olim L.S.Berg tomonidan kiritilgan bo'lib uning landshaft tushunchasi borasida olib borgan nazariyalari landshaftning kelib chiqishi, tuzilishi haqida muhim ma'lumotlar kiritilgan

Kalit so'zlar: landshaft, Antropogen landshaft, o'zgarmagan yoki kam o'zgargan landshaft, buzilgan landshaft, kuchli o'zgargan landshaftlar, Madaniy landshaftlar, fatsiya, urochisha, joy.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрено понятие ландшафта, а также то, как ландшафт делится на виды с географической точки зрения, изменения, происходящие в ландшафте, а также какие географические законы связаны с процессом формирования ландшафта. Каждый ландшафт состоит из морфологических частей, таких как урочище, фация и место, для которых дается отдельное описание. Понятие ландшафта было введено в науку первым географом Л.С.Берг. В его теории о ландшафтных понятиях рассматриваются происхождение, структура ландшафта и важнейшие природно-географические процессы, а также типы ландшафтов, которые объединяют схожие ландшафты.

Ключевые слова: Ландшафт, антропогенный ландшафт, неизменённый или малоизменённый ландшафт, изменённый ландшафт, сильно изменённый ландшафт, культурный ландшафт, фация, урочище, место.

Abstract: In this article, the concept of landscape is thoroughly discussed, as well as how landscapes are categorized from a geographical perspective, the changes occurring in landscape, and the geographical laws related to the formation of landscapes. Each landscape is made up of morphological parts such as the *uruchishche*, *facia*, and *place*, for which separate descriptions are provided. The concept of landscape was first introduced to science by the geographer L.S.Berg. His theory on the concept of landscapes covers the origin, structure, and key natural geographic processes, as well as landscape types that encompass similar landscapes

Keywords: Landscape, anthropogenic landscapes, unchanged or changed landscapes, destroyed landscapes, strongly changed landscapes, cultural landscapes, *fazia*, *urochishche*, *place*.

Landshaft-Yer yuzasi geografik qobiqning uzoq vaqt davom etgan tabiiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan va o'z tabiati bilan boshqa hududlardan ajralib turadigan joy hisoblanadi. Landshaft nemischa so'z bo'lib (*land*-yer va *schaft*- o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aks ettiruvchi suffiks) umumadabiy tilda manzara joyning ko'rinishi ma'nolarini anglatadi. S.V.Kalesnik landshaftga quyidagicha ta'rif bergan: "yer yuzasining boshqa qismlaridan sifat jihatidan farq qiluvchi, tabiiy chegaralar bilan o'ralgan va har bir predmet va hodisalarning bir butun holda o'zaro taqozo qilib turuvchi uyg'unligidan iborat bo'lgan va kattagina maydonda tipik namoyon bo'lgan hamda barcha jihatidan landshaft qobig'i bilan chanbarchas bo'lgan hududlarga aytiladi" Bularga landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalarda ibat tizimni hosil qiladi.

Joy - o'zaro bog'liq va o'xshash urochishelarning mujassamligisan iborat geotizim. joy relyefning mezoshakllariga to'g'ri keladi, daryolarning quyi terassalari, qayir

joylarni tashkil qiladi. Ushbu joylar guruhi uchun grunt suvlarining yer betiga yaqin joylashishi, tuproq hosil bo'lishida ularning faol qatnashishi, asosan gidromorf, ya'ni alluvial tuproqlarni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Urochishe relyefning mezoshaklida joylashgan bo'lib kelib chiqishi va rivojlanishi jihatdan uzviy bog'liq bo'lgan fatsiyalardan iborat geotizimdir. joyning alohida urochishelarga bo'linishida uning litosfera asosi -relyef handa tog' jinslarining litologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir. Tekisliklarda urochishe ko'proq jarliklarga, murakkab tuzilgub, quyi terassalarga, yuqori terassalardagi botiqlarga deltalardagi quyidan kichikroq ko'llarning botiqlariga, tog'larda esa soylarga, adiroldi qirlarga, past va o'rtacha balandlikdagi tog'larning turli qismlariga mos keladi.

Fatsiya -(lotincha facies-tashqi qiyofa ma'nisini anglatadi) tog' jinslarning litologik tarkibi bir xil, relyef tuzilishi, namlanishi bir xil, mikroiklimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi bir xil, ya'ni uni hosil qiluvchi komponentlariga xos belgilari bir xilligi bilan tavsiflanadigan eng oddiy tuzilgan va eng kichik geotizimga aytiladi. Shunday qilib landshaft deganda biz geologik zamini, relyefi, iqlimi, gidrologik rejimi, tuproq-o'simlik qoplami, hayvonot dunyosining bir xilligi bilan ajralib turadigan hamda ma'lum chegaraga ega bo'lgan hududlarni tushunamiz.

Ma'lumki, landshaft qobig'ini hosil qiluvchi tabiiy unsurlar relyef, iqlim, tuproq o'simlik va boshqalarning har biri xususan rivojlanish qonuniyatiga ega lekin shuni unutmaslik kerakki, ularning tabiat unsurlarining rivojlanishi bir-birudan aniqlangan holda emas, aksincha, bir-biri bilan uzliksiz ravishda aloqada bo'lib, modda va energiya almashinib turadi.

Landshaft tushunchasini fanga birinchi bo'lib L.S.Berg tomonidan kiritilgan. U landshaftni yer yuzasining tuzilishi, iqlimi, tuproq-o'simlik olami birgalikda hosil qiluvchi va yerning muayyan zonasi doirasida tipik ravishda takrorlanib turuvchi tabiiy hududiy birlik, deb tushuntiradi. Shuningdek

L.S.Berg landshaft bilan tabiat zonalari o'rtasidagi nisbatni tushuntirib, zonalar bir xil landshaftlar eng ko'p tarqalgan hududlardir deb, ularni landshaft zonalaru degan

g'oyani olg'a suradi. Antropogen landshaft haqida tushuncha. Inson yer yuzida paydo bo'lgandan shu kungacha tabiat bilan munosabatda bo'lib, unga ta'sir etib, tabiat unsurlarining o'zgarishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Fan va texnika taraqqiyotgan bugungi kunda insonning tabiatga ta'siri kuchayib bormoqda. Natijada insonning ta'siri tufayli yer yuzi landshaftlarida kuchli o'zgarishlar sodir bo'lib ba'zi joylarda tabiiy landshaftlar deyarli butunlay o'zgarib yuborilgan bu esa antropogen omillarni yuzaga keltiradi.

Shu tariqa tabiiy landshaftlar tashqi ko'rinishi antropogen landshaftga aylanadi. Bir ko'rinishi texnik ta'sir bo'lib, texnikaning tabiat bilan o'zari tutashib katishi natijasida yaxlit tabiiy-texnik tizimlar vujudga keladi. Ular fanda geotextizimlar deb yuritiladi. Inson xo'jalik faoliyat relyefga ta'siri etib har xil sun'iy relyeflarni vujudga keltirmoqda yuqorida ko'rsatilgan insonning xo'jalik faoliyati ta'siri natijasida o'zgarishlar quyidagi sinflarga ajratiladi.

1. O'zgarmagan yoki kam o'zgargan landshaft.

Bunga tabiat unsurlari-tuproq, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi derayli o'zgarmagan yoki kam o'zgargan hududlar, xususan tog'larning eng baland qismlari yoki antartikadagi odam qadami yetmagan hududlar kiradi

2. Kam o'zgargan landshaftlar.

Bunga yerlarni haydab, tabiiy o'simlik qoplamini taxminan 20% i yo'q qilingan hududlar yoki tabiatning ayrim unsurlariga ta'sir ko'rsatib. Tabiatning asosiy landshaftlarini saqlangan hududlar

3. Buzilgan landshaftlar.

Bunga kishilarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xususan nato'g'ri agrotexnikani qo'llash oqibatida vujudga kelgan suv eroziyasi, qayta sho'rlanish, mol biqish natijasida vujudga kelgan qun ko'xhishlar kabilar misol bo'ldi

4. Kuchli o'zgargan landshaftlar.

Bunga vohalarda yerlarni haydab, o'g'itlab ekin ekish tufayli, u yerdagi tabiiy o'simlik qoplami deyarli yo'q qilingan hududlar, shuningdek, katta shaharlar misol bo'ladi.

5. Madaniy landshaftlar.

Bunday landshaftlarga zararli tabiiy jarayonlar-tuproq va shamol eroziyasi, qayta sho'rlanish yo'qotilgan yoki kamaytirilgab vohalar hamda bog'lar misol bo'ladi. Binobarin, madaniy landshaft bu sifat jihatdan unumdorligu oshirilgan, insonning yashab, dam olib, hordiq chiqarishi uchun qulay qilib o'zgartirilgan tabiiy landshaftlar tushuniladi.

Antropogen landshaft insoning xo'jalik faoyati oqibatida, ya'ni tog'-kon sanoati, har xil qurilishlar, qishloq xo'jalikda yerlardan noto'g'ri foydalanish, yaylovlardan noratsional foydalanish oqibatida o'simliklarga zarar yetkazish, har xil gidrotexnik inshootlar qurish, yangi-yangi shahar va qishloqlarni barpo etish, har xil quvurlar yotqizish va boshqalar tasiruda tabiiy landshaftlarning buzilgan nusxasidir. Binobarin, madaniy landshaft bilan antropogen landshaft orasida farq mavjudligini hisobga olib, antropogen landshaftni madaniy landshaft deyish to'g'ri kelmaydi.

Xulosa

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar fikrlar bilan shuni takidlash kerakki inson ta'siri doirasida landshaftlaning buzilishi ya'ni tabiiy geografik komplekslarni o'zgarishini kabi jarajonlarni oldini olish qishloq xo'jalik yerlaridan noto'g'ri foydalanishdan chekinik o'rniga madaniy landshaftlarni rivojlantirib yerning unumdorligini oshirish, voha joylarini dam olib hordiq chiqarish uchun qulay qilib o'zgartish lozim. Bu tadbirlar landshaftlarni butkul buzulini emas ularni qayta tiklashni foydali tomonini oshirishga qaratilgan ishlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1- Baratov p., Sultonov N.B. "Umumiy yer Bilimi" Toshkent 2018 yil 359-361 bet
- 2-Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. 10- sinf geografiya darslik Toshkent-2017- yil 45- betlar.
3. "O'zbekiston tabiati" – O'zbekiston yozuvchilari tomonidan yozilgan tabiat tasvirlari jamlangan majmua.
4. Internet manbasi.